



OILAVIY ZO'RAVONLIKKA QARSHI HUQUQIY HIMOYA MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Madmusayev Muhammadyusuf Shohjaxon o'g'li

Abu Rayhon Beruniy universiteti Yurisprudensiya
yo'nalishi 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17789382>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 28-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 30-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

oilaviy zo'ravonlik, himoya orderi,
gender tengligi, huquqiy
mexanizmlar, yarashuv instituti,
CEDAW, JSST, huquqiy himoya,
psixologik ekspertiza, xalqaro
tajriba.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida oilaviy zo'ravonlikka qarshi huquqiy himoya mexanizmlarining amaldagi holati xalqaro tajriba bilan qiyoslab tahlil qilingan. JSST, CEDAW kabi xalqaro hujjatlar asosida oilaviy zo'ravonlikning jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va jinsiy shakllari huquqiy jihatdan tahlil etiladi. 2019-yilda qabul qilingan "Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun hamda "Himoya orderi" institutining amaliy samaradorligi baholanadi. Mazkur institutni qo'llashda uchrayotgan muammolar, xususan orderni ijro etishdagi kechikishlar, uning bekor qilinishi jarayonidagi tashqi bosim ehtimoli va jabrlanuvchining erkin roziligi masalalari yoritigan.

Ayolga nisbatan oilaviy yoki maishiy zo'ravonlik – bu nafaqat insonning asosiy huquqlari buzilishi, balki jamiyatning sog'lig'i, barqarorligi va xavfsizligiga tahdid soluvchi global ijtimoiy-huquqiy turdagi muammodir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, "dunyo miqyosida har uchinchi ayol hayoti davomida sherigi tomonidan jismoniy tazyiqqa duch keladi. Turmush qurgan ayollarning 30 foizi hamrohi tomonidan zo'ravonlik holatlariga duch kelganini ma'lum qiladi, bu esa muammoning to'liq holatini yaqqol ko'rsatadi. Afsuski, ayollar o'limining 38 foizi ularning turmush o'rtog'i tomonidan sodir etiladi va zo'ravonlikka duch kelgan ayollarning atigi 42 foizigina bu muammo haqida ochiq so'zlaydi"[1]. Zo'ravonlikning bu shakli ijtimoiy-iqtisodiy yoki madaniy chegaralarni tan olmaydi, turmush darajasi va demokratiyadan qat'i nazar, dunyoning barcha mamlakatlarida kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlash va ayollar huquqlarini himoya qilish davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. 2019-yilda "Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning [2] qabul qilinishi zo'ravonlikka qarshi huquqiy kurashni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu Qonun zo'ravonlikning oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo'yish, shuningdek, jabrlanganlarga huquqiy, ijtimoiy va boshqa yordam ko'rsatish tizimini mustahkamlashga qaratilgan muhim huquqiy asosdir. Biroq, mavjud huquqiy usullarni amaliy qo'llashda, ayniqsa, zo'ravonlik ishlari bo'yicha yarashuv jarayonini qo'llash va himoya tizimining samaradorligini oshirish borasida chuqur ilmiy asoslangan tahlilni talab etuvchi masalalar saqlanib qolmoqda. Ayolning zo'ravonlik sharoitida

yarashuvga majburlanish ehtimoli va himoya turlarining to'liq ishlamasligi huquqiy davlat tamoyillariga zid keladi. Qonun ustuvorligi faqat jamiyatning barcha a'zolari teng himoyalangan va adolat ta'minlangan taqdirdagina to'liq amalga oshadi.

O'zbekiston Respublikasida oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida tahlil qilish ularning amaliy samaradorligini baholash hamda sud amaliyotini takomillashtirish yuzasidan aniq ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni qo'yish mumkin:

birinchidan, Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining huquqiy mohiyatini va uning inson huquqlari tizimidagi o'rnini xalqaro hujjatlar asosida ochib berish.

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida belgilangan asosiy himoya mexanizmlarini tahlil qilish.

uchinchidan, Jinoyat ishlarida yarashuv komissiyasining oilaviy zo'ravonlik ishlaridagi qo'llanilishi va bu boradagi sud amaliyotini takomillashtirishga doir aniq takliflarni asoslash.

Oilaviy zo'ravonlik huquqshunoslikda asosan to'rt asosiy turda talqin etiladi: jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy. O'zbekiston qonunchiligida bu turlarning e'tirof etilishi muhim qadam bo'lsa-da ularning har birini huquqiy jihatdan isbotlashning nazariy va amaliy murakkabliklari mavjud.

Ruhiy zo'ravonlik nafaqat tahdid balki doimiy psixologik nazoratni ham o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi. "Oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurash: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari"[3] bu turdagi zo'ravonlikning ijtimoiy xavfliligi uning yashirin va uzoq muddatli ta'siri tufayli jismoniy zo'ravonlikdan kam emasligi ta'kidlanadi. Ruhiy zo'ravonlikni isbotlash uchun sud psixologik ekspertizaning maqomini oshirish nazariy jihatdan muhim.

Iqtisodiy zo'ravonlik esa ayolning iqtisodiy mustaqilligini cheklash orqali uning huquqiy erkinligini yo'q qiladi. Bu holat, BMTning "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish" to'g'risidagi konvensiyasi (CEDAW)da[4] ayolning iqtisodiy hayotda teng ishtirok etish huquqini buzish sifatida ta'riflanadi.

Xalqaro huquq miqyosida zo'ravonlikka qarshi kurashish davlatning asosiy majburiyatlaridan biri hisoblanadi. (CEDAW) Bosh tavsiyasining 19-bandi, ayollarga nisbatan zo'ravonlikni kamsitishning bir shakli ekanligini belgilash bilan birga, davlatni zo'ravonlik holatlarini oldini olish, tekshirish va jazolash uchun barcha choralarni ko'rishga majburlaydi. Huquqshunos olim A.Saidovning[5] nazariy ishlari orqali inson huquqlari tizimi tahlil qilinganida zo'ravonlikning oldi olinishi qonun ustuvorligi tamoyilini mustahkamlashning asosiy sharti ekanligi isbotlanadi.

O'zbekistonda 2019-yilgi qonun bilan joriy etilgan asosiy himoya mexanizmi "Himoya orderi"[6] xalqaro tajribaga asoslangan muhim qadam bo'ldi. Bu mexanizm, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Ispaniyadagi "Restraining Orders" kabi tizimlarga o'xshashdir.

Biroq, amaliyotdagi muammolar mexanizmning to'liq samarasini cheklamoqda:

birinchidan, Orderni joriy etish qonunchilikda belgilangan bo'lsa-da, uning buzilishi holatlarida tezkor huquqiy chora ko'rish mexanizmi sekin ishlaydi. Xalqaro tajribada (masalan, Ispaniya, AQSh) joriy qilingan elektron monitoring GPS tizimi zo'ravon shaxsning jabrlanuvchiga yaqinlashishini avtomatik nazorat qilib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni zudlik bilan xabardor qiladi. O'zbekiston sharoitida orderning ijrosini nazorat qilishning shu kabi zamonaviy texnologik yechimlarini joriy etish huquqiy himoyani kuchaytiradi.

ikkinchidan, O'zbek jamiyatida oila va nikohni saqlab qolishga doir kuchli an'anaviy qadriyatlar ko'pincha ayolning zo'ravonlik haqida ochiq gapirishiga yoki rasmiy murojaat qilishiga to'sqinlik qiladi. Jabrlanuvchilarning 42 foizdan kam muammo haqida gapirishi statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlangan. Huquqiy ongni oshirish, ayniqsa qishloq joylarda bepul yuridik yordam xizmatlarini kengaytirish orqali bu muammoni bartaraf etish mumkin.

Bundan tashqari, Himoya orderi muddati tugaganidan so'ng vaziyatni monitoring qilish va Xavfni baholash tizimini joriy etish orqali zo'ravonlik takrorlanish xavfini ilmiy asosda o'ylash va oldini olish choralari kuchaytirish zarur.

Oilaviy zo'ravonlik ishlarida eng ziddiyatli masala – Jinoyat kodeksidagi yarashuv institutining (JK 661-modda.)[7] qo'llanilishidir.

Oilaviy zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayol zo'ravon bilan teng huquqli subyekt sifatida muzokaralar olib bora olmaydi. Uning roziligi ko'pincha iqtisodiy qaramlik, bolalar manfaatlarini saqlab qolish va ijtimoiy bosim natijasida kelib chiqadi. Bunday sharoitda erishilgan yarashuv real huquqni tiklashga xizmat qilmaydi. U aksincha zo'ravonlikni "oilaviy masala" deb qonuniylashtirishga, zo'ravonga jazodan qochish imkonini berishga va kelajakdagi zo'ravonlikka sharoit yaratishga olib kelishi mumkin.

Shu bois sudlar qaror chiqarishda: Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik ishlarida yarashuv to'g'risida ish yuritishda sudlar ayolning yarashuvda amaldagi tengsiz imkoniyati ehtimolini yaxshilab tekshirishi, ayniqsa uning mustaqil psixologik holatini baholashni talab qilishi, jamiyatdagi an'analar hamda yaqinlarning ayolni yarashishga majburlamaganiga ishonch hosil qilishi, zararni qoplashga va huquqni tiklashga doir choralarni sinchiklab o'rganishlari lozim. Bunda jabrlanuvchining ko'rsatmasi bilan cheklanmasdan, guvoh va boshqa ishtirokchilar ko'rsatmalarini hamda boshqa holatlarni o'rganishlari lozim. Agar sud jabrlanuvchining roziligi tashqi bosim ostida olingan deb hisoblasa, yarashuv institutini qo'llashni rad etishi

"uy xo'jaligi sherigi (turmush o'rtog'i, sobiq turmush o'rtog'i, qarindoshi yoki birga yashovchi shaxs) tomonidan zo'ravonlikning sodir etilishi jazo tayinlashda og'irlashtiruvchi holat sifatida e'tiborga olinishi lozim. Sudlar bunday holatlarni Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan boshqa og'irlashtiruvchi holatlar bilan bir qatorda ko'rib chiqishi shart".

Himoya orderi– jabrlanuvchining hayoti va sog'lig'i uchun joriy etilgan himoya chizig'idir. Biroq, amaliyotda orderni jabrlanuvchining arizasi asosida bekor qilish ehtimoli mavjud. Bu tartib jiddiy nazoratni talab qiladi. Orderni bekor qilish to'g'risidagi arizaning ortida zo'ravonning bosimi, tahdidi yoki moliyaviy yordam va'dasi turishi mumkin. Bunday sharoitda jabrlanuvchining qarori erkin va xavfsiz qabul qilingan deb bo'lmaydi. Masalan, Niderlandiya va Belgiya kabi davlatlarda zo'ravonlik holatlarida jabrlanuvchi o'z arizasini qaytarib olishi yoki himoya chorasini bekor qilishni so'rashi, vakolatli organlarning avtomatik ravishda tergovni to'xtatishiga sabab bo'lmaydi. Aksincha, davlat o'z manfaati va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash uchun tergovni davom ettirishi mumkin.

Himoya orderini bekor qilish tartibiga oid me'yoriy hujjatlarga qo'shimcha nazorat bandi kiritish zarur:

"Himoya orderini bekor qilish to'g'risidagi ariza jabrlanuvchidan olinganda, vakolatli organ (Ichki ishlar yoki sud) majburiy psixologik suhbatni o'tkazishi va jabrlanuvchining xavfsizlik darajasini qayta baholashi shart. Suhbat jabrlanuvchi zo'ravondan alohida qilingan muhitda, boshqa shaxslarning aralashuvisiz o'tkazilishi lozim. Agar orderni bekor qilish ortida

tashqi bosim ehtimoli mavjud bo'lsa, arizani qanoatlantirish rad etilishi, zo'ravonga nisbatan esa nazorat kuchaytirilishi lozim."

Oilaviy zo'ravonlikka qarshi samarali huquqiy himoya tizimini shakllantirish nafaqat qonunlarni qabul qilish, balki ularni qo'llash amaliyotida huquqiy madaniyatni o'zgartirishni ham talab etadi. O'zbekiston o'z qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish yo'lida muhim qadamlar tashlaganiga qaramay, amaliyotda aholining huquqiy ongi va sud amaliyotidagi ba'zi an'anaviy yondashuvlar islohotlarga to'siq bo'lmoqda.

O'tkazilgan tahlillar natijasida quyidagi asosiy xulosalar va takliflarni ilgari surish mumkin:

birinchidan, Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish davlatning inson huquqlarini ta'minlash borasidagi ijobiy majburiyati hisoblanadi. Himoya orderi mexanizmining ijrosini texnologik choralar orqali kuchaytirish hamda ruhiy zo'ravonlikni aniqlash usullarini takomillashtirish orqali bu majburiyatning bajarilishini ta'minlash zarur.

ikkinchidan, Jinoyat ishlarida yarashuv instituti oilaviy zo'ravonlik ishlarida jabrlanuvchining amaldagi tengsizligini inobatga olmagan holda qo'llanishi natijasida ayolning huquqiy himoyasiga xavf tug'dirishi mumkin.

uchinchidan, Ushbu muammoni hal etish maqsadida, kiritilgan aniq takliflar sudlarning yarashuv jarayoniga yondashuvini chuqurlashtirishga, zo'ravonlikning oilaviy holatini og'irlashtiruvchi holat sifatida tan olishga va shu bilan huquqiy himoya tizimini sezilarli darajada kuchaytirishga xizmat qiladi.

to'rtinchidan, Himoya orderini bekor qilishda jabrlanuvchining haqqoniy ixtiyoriy qarorini ta'minlash maqsadida majburiy psixologik suhbatni joriy etish nazorat mexanizmlarining mustahkamlanishiga olib keladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, huquqiy islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan qonun normalarining mohiyatini va ularni qo'llashdagi amaliy yondashuvni tushunishga bog'liq. Faqat tizimli va ko'p qirrali yondashuv, nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligi orqali oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish mexanizmlari O'zbekistonda samarali huquqiy himoya tizimini ta'minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlari. (Manbaaga murojaat qilish vaqti: 2025-yil 23-noyabr).
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi "Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-son Qonuni.
<https://lex.uz/docs/-4494709> (Manbaaga murojaat qilish vaqti: 2025-yil 23-noyabr).
3. O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi. "Oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurash: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari". — Toshkent, 2022. https://api.moiti.uz/media/dekabr_2022.pdf (Manbaaga murojaat qilish vaqti: 2025-yil 24-noyabr).
4. BMTning 1979-yil 18-dekabrdagi "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish" to'g'risidagi konvensiyasi (CEDAW)
<https://lex.uz/docs/-2685528> (Manbaaga murojaat qilish vaqti: 2025-yil 23-noyabr).
5. A.Saidov, Xalqaro huquq, Toshkent-2012. https://tiu-edu.uz/media/books/Xalqaro_Huquq_-A.Saidov-lot.pdf (Manbaaga murojaat qilish vaqti: 2025-yil 24-noyabr).

6. "Himoya orderi" 2019 yil sentyabrida «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida» qonun.

<https://advice.uz/oz/document/4172> (Manbaaga murojaat qilish vaqti: 2025-yil 24-noyabr).

7. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi <https://lex.uz/docs/-111453> (Manbaaga murojaat qilish vaqti: 2025-yil 23-noyabr).

